

---

“Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti tanlovining tuman bosqichi bo‘lib o‘tdi. Qo‘shitepa tumanidagi 15-sonli bolalar musiqa va san‘at maktabida “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti tanlovining tuman bosqichi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu tanlovda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan eng iqtidorli va zukko, tashabbuskor nomzodlar o‘zlari qiziqqan yo‘nalishlar bo‘yicha bilim va iqtidorlarini sinab ko‘rishdi.

Tanlov komissiyasi azolari tomonidan har bir ishtirokchi qizlarning chiqishlari, ularning tayyorlagan ishlari va ibratli faoliyati hamda alohida yutuqlari ko‘zdan kechirilib, odilona baholab borildi.

Tadbir yakunda g‘olib va sovrindorlarga tashkilotchilarning “Tashakkurnoma” va esdalik sovg‘alari taqdim etildi hamda eng munosib deb topilgan iqtidorli qizlar tanlovning viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdilar.

Tanlovning viloyat bosqichida qizlarimizga omad yor bo‘lishini tilaymiz.





































